



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRINING BUYRUG‘I

2024 - yil “19” yanvar 15 -son

Toshkent viloyati

Agrar sohadagi oliy ta’lim muassasalarining kuzatuv (boshqaruv) kengashlari tarkibiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-60-son va “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish to‘g‘risida”gi PQ-61-son, 2022-yil 7-maydagi “Xalqaro qishloq xo‘jaligi universitetini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-237-son, 2023-yil 26-yanvardagi “Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro institutini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-22-son va 2023-yil 7-iyuldagi “Agrar sohada ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-216-son qaroriga asosan va mazkur oliy ta’lim muassasalarining tegishli murojaat xatlarini inobatga olib,

BUYURAMAN:

1. Toshkent davlat agrar universiteti, Xalqaro qishloq xo‘jaligi universiteti, Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti hamda Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutlarining kuzatuv (boshqaruv) kengashlari tarkibiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risidagi takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Toshkent davlat agrar universiteti kuzatuv kengashining tarkibi 1-ilovaga;

Xalqaro qishloq xo‘jaligi universiteti kuzatuv kengashining tarkibi 2-ilovaga;

Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti boshqaruv kengashining tarkibi 3-ilovaga;

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti kuzatuv kengashining tarkibi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Toshkent davlat agrar universiteti (Islamov), Xalqaro qishloq xo‘jaligi universiteti (Aminova), Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti (Tojiyev) va Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti (Xasanov):

ikki hafta muddatda tegishliligi bo‘yicha Kuzatuv (Boshqaruv) kengashlarining 2024-yilga mo‘ljallangan ish rejasini ishlab chiqsin hamda vazirlikka tasdiqlash uchun taqdim etsin;

Kuzatuv (Boshqaruv) kengashlariga kiritiladigan masalalarni belgilangan tartibda ko‘rib chiqish va muhokama qilishni tashkil etish vazifasi yuklatilsin.

4. Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 3-fevraldagi “Toshkent davlat agrar universiteti Kuzatuv kengashi tarkibiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi 21-son, 2023-yil 31-iyuldagi “Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 139-son buyrug‘ining 2-ilovasi hamda 2023-yil 15-avgustdagi “Xalqaro qishloq xo‘jaligi universitetining Kuzatuv kengashi tarkibiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi 152-son buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o‘rinbosari A.Shukurov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



I. Abduraxmanov

Qishloq xo'jaligi vazirining
2024-yil 19 - yanvar dagi
15 -sonli buyrug'iga
1-ilova

**Toshkent davlat agrar universiteti Kuzatuv kengashining
TARKIBI***

T/r	Kuzatuv kengashi a'zolarining F.I.Sh.	Ish joyi va lavozimi
1.	G'aniyev Shuhrat Madaminovich	- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat maslahatchisi - <i>Kuzatuv kengashi raisi</i>
2.	Abduraxmanov Ibrohim Yulchiyevich	- O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vaziri - <i>Kuzatuv kengashi hamraisi</i>
3.	Shukurov Alisher Nematillayevich	- Qishloq xo'jaligi vazirini o'rinbosari – <i>Kuzatuv kengashi raisining o'rinbosari</i>
4.	Yuldashev Bekzod Sodiqovich	- O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti
5.	Otajonov Shuxrat Ibrayimjonovich	- Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi bosh direktori
6.	Vaxabov Abrol Djabbarovich	- Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi boshlig'i
7.	Ergashev Ibrohim Kenjaboyevich	- O'simliklar karantini va himoyasi agentligi bosh direktori
8.	Ergashev Iqboljon Odiljonovich	- Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi raisi
9.	Buriyev Zabardast Tojiboyevich	- Genomika va bioinformatika markazi direktori
10.	Mamatkulov Rustam O'ktamovich	- "Agrobank" ATB boshqaruvi raisi
11.	Umarov Sherzod Normaxmadovich	- Birlashgan Millatlar Tashkiloti Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ning O'zbekistondagi vakolatxonasi direktori
12.	Islamov Soxib Yaxshibekovich	- Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori
13.	Mamadiyarov Dilshod Uralovich	- Toshkent davlat agrar universiteti moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori - <i>Kuzatuv kengashi kotibi</i>

* *Kuzatuv kengash a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.*

Qishloq xo'jaligi vazirining
2024-yil 19 - yanvar dagi
15 -sonli buyrug'iga
2-ilova

**Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetining Kuzatuv kengashi
TARKIBI***

T/r	Kuzatuv kengashi a'zolarining F.I.Sh.	Ish joyi va lavozimi
1.	Abduraxmanov Ibrohim Yulchiyevich	- O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vaziri – Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti - <i>Kuzatuv kengashining raisi</i>
2.	Shukurov Alisher Nematillayevich	- Qishloq xo'jaligi vazirini o'rinbosari - <i>Kuzatuv kengashi raisining o'rinbosari</i>
3.	Karimov Komiljon Hamidovich	- O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining birinchi o'rinbosari
4.	Sharifxo'jayev Usmon Ulfatovich	- O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirining birinchi o'rinbosari
5.	Abdualimov Eshmirza Urolovich	- Qishloq xo'jaligi vazirining maslahatchisi
6.	Piter Makkafferi	- Buyuk Britaniya Qirollik qishloq xo'jaligi universiteti rektori (<i>kelishuv asosida</i>)
7.	Raxmatov Murtaza Axmedovich	- O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari uyushmasi raisi
8.	Ibragimova Robiya Shavkatovna	- "RS Success Agro" MChJ bosh direktori
9.	Mardonov Husniddin Xolbazarovich	- Toshkent davlat agrar universiteti o'quv ishlari bo'yicha prorektori
10.	Alan Frans	- Ta'lim bo'yicha Buyuk Britaniyalik xalqaro ekspert (<i>kelishuv asosida</i>)
11.	Aminova Munira Abdugafurovna	- Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti rektori - <i>Kuzatuv kengash kotibi</i>

* *Kuzatuv kengash a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.*

Qishloq xo'jaligi vazirining
2024-yil 19 - yanvar dagi
15 -sonli buyrug'iga
3-ilova

**Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti Kuzatuv kengashi
TARKIBI***

T/r	Kuzatuv kengashi a'zolarining F.I.Sh.	Ish joyi va lavozimi
1.	Xodjayev Jamshid Abduhakimovich	- O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari - Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti - <i>Kuzatuv kengashining raisi</i>
2.	Abduraxmonov Ibrohim Yulchiyevich	- O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vaziri – - Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti - <i>Kuzatuv kengashining hamraisi</i>
3.	Shukurov Alisher Nematillayevich	- Qishloq xo'jaligi vaziri o'rinbosari - Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti - <i>Kuzatuv kengashining raisi o'rinbosari</i>
4.	Vahobov Davron Abdusalolovich	- O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi raisi
5.	Otajonov Shuxrat Ibrayimjonovich	- Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi bosh direktori
6.	Qosimov Fayzullajon Sa'dullayevich	- Farg'ona viloyati hokimi o'rinbosari
7.	Islamov Sohib Yaxshibekovich	- Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori
8.	Akramov Shohrux	- Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi direktori
9.	Moxib Axmedxon	- Ummon Sultonligining «Atyab International Services» kompaniyasi rahbari (<i>Kelishuv asosida</i>)
10.	Moxsinuddin Suyed	- Ummon Sultonligining “Atyab International Services” kompaniyasi loyihasi rahbari (<i>Kelishuv asosida</i>)
11.	Tojiyev Rustambek Rasulovich	- Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti rektori - <i>Kuzatuv kengashining kotibi</i>

* Kuzatuv kengash a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.

Qishloq xo'jaligi vazirining
2024-yil 19 - yanvar dagi
15 -sonli buyrug'iga
4-ilova

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti
Kuzatuv kengashi
TARKIBI*

T/r	Kuzatuv kengashi a'zolarining F.I.Sh.	Ish joyi va lavozimi
1.	Abduraxmonov Ibrohim Yulchiyevich	- O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vaziri – Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti - Kuzatuv kengashining raisi
2.	Abdualimov Eshmirza Uralovich	- Qishloq xo'jaligi vaziri maslahatchisi - Kuzatuv kengashi raisining o'rinbosari
3.	Boboyev Adiz Muzafarovich	- Iqtisodiyot va moliya vaziri o'rinbosari
4.	Turdimov Erkinjon Oqbo'tayevich	- Samarqand viloyati hokimi
5.	Xoliqov Abduvali Jonuzoqovich	- Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamenti boshlig'i
6.	Shamsiyev Akmal Sadirdinovich	- Qishloq xo'jaligi vazirligi Ilm-fan, innovatsiyalar va ta'limni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i v.v.b.
7.	Youngbeom Lee	- Koreya respublikasi Xalqaro O'simlikshunoslik ilmiy – tadqiqot instituti prezidenti (Kelishuv asosida)
8.	Alessandra Guidi	- Italiyaning Piza universiteti professori (Kelishuv asosida)
9.	Irina Kulitane	- Latviya amaliy bilimlar va texnologiyalar universiteti xalqaro loyihalar kordinatori (Kelishuv asosida)
10.	Akramov Komiljon	- IFPRI (Xalqaro oziq-ovqat siyosati) ITI departament boshlig'i, AQSh (Kelishuv asosida)
11.	Djanibekov Nodir (vatandosh)	- Germaniya davlatining o'tish davri mamlakatlarida qishloq xo'jaligini rivojlantirish Leybnis instituti(IAMO) Qishloq xo'jaligi siyosati kafedrasida professori (Kelishuv asosida)
12.	Fayzilov Mexroj	- Samarqand viloyati, Jomboy tumanidagi «Maroqand Meva-Sabzavot» MChJ direktori
13.	Xasanov Shavkat Tursunqulovich	- Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti rektori - Kuzatuv kengashi kotibi

* Kuzatuv kengash a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.